



UZLUKSIZ TA'LIMDAGI TENDENSIYALAR, MAQSAD VA VAZIFALARINI O'RGANISH

*Turan International University Gumanitar
Fanlar va pedagogika fakulteti Maktabgacha ta'lim yo'nalishi
SMT-22-CU guruh 4-kurs talabasi
Xikmatullayeva Shohsanam Izzatulla-qizi*

Annotatsiya

Mazkur maqolada uzluksiz ta'lim tizimining mazmun-mohiyati, zamonaviy rivojlanish tendensiyalari, asosiy maqsad va vazifalari tahlil etilgan. Shuningdek, globallashuv, raqamlashtirish va innovatsion yondashuvlar sharoitida uzluksiz ta'limning ahamiyati ochib berilgan. Ta'lim sifatini oshirishda uzluksiz ta'limning tutgan o'rni va uni rivojlantirish yo'nalishlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: uzluksiz ta'lim, ta'lim tizimi, kompetensiya, innovatsiya, raqamli ta'lim, hayot davomida ta'lim.

Annotation

This article analyzes the essence of lifelong education, its modern development trends, goals, and objectives. It highlights the importance of lifelong learning in the context of globalization, digitalization, and innovative approaches. The role of lifelong education in improving the quality of education and its development directions are discussed.

Key words: lifelong education, education system, competence, innovation, digital education, learning throughout life.

Bugungi globallashuv va tezkor ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sharoitida ta'lim tizimiga bo'lgan talablar tubdan o'zgarmoqda. Jamiyatda bilim, malaka va



kompetensiyalarni doimiy ravishda yangilab borish zarurati uzluksiz ta'lim tushunchasini dolzarb masalaga aylantirdi. Uzluksiz ta'lim insonning butun hayoti davomida bilim olishi, kasbiy va shaxsiy rivojlanishini ta'minlovchi muhim tizim hisoblanadi.

Mustaqillik yillarida xalqimizning tarixiy xotirasini tiklash va takomillashtirish borasida ko'plab ishlar amalga oshirildi. Bu borada hozirgi davrda yurtimiz kelajagini o'ylab zahmat chekkan, Vatanimiz ozodligi yo'lida kurashgan, millatimiz ravnaqi uchun umrini bag'ishlagan, o'zidan obod shahar-u vohalar, betakror go'zal yodgorliklar qoldirgan ajdodlarimiz mehnatini yuzaga chiqarish, ularni qadrlash, ruhi poklarini shod qilish, ezgu ishlarini davom ettirish biz uchun, bugungi avlodning zimmasidagi eng katta vazifasidir.

Yoshlarning uzluksiz ta'limini ta'minlashda kasb-hunar maktablari, litseylar va oliy o'quv yurtlari o'rtasidagi hamkorlik katta ahamiyatga ega.

Uzluksiz ta'limning hamma bosqichlarida ta'limning o'ziga xos tashkiliy shakllari majud. Ta'lim tizimi har bir jamiyatning rivojlanish asosi bo'lib xizmat qiladi. Chunki aynan ta'lim tizimi jamiyatning har bir a'zosini ma'naviy, ilmiy dunyoqarashini shakllanishida eng asosiy o'rinni egallaydi. Shuning uchun ham barcha tarixiy yuksalish, yangilanish bosqichlarida aynan ta'lim tizimini isloh qilish muhim o'rin tutgan. Ta'lim tizimi har bir jamiyatning rivojlanish darajasidan hamda shu jamiyatning talablaridan kelib chiqqan holda shakllanadi. O'sib kelayotgan yosh avlod ta'lim jarayonida:

- ☐ Zarur bilimlar bilan qurollantiriladi;
- ☐ Kerakli malakalarga ega bo'ladi;
- ☐ Ko'nikmalar hosil qiladi;



O'quv jarayonida ta'lim oluvchilar va pedagoglar o'rtasida o'ziga xos munosabatlar o'rgatilib bu jarayon ikki tomonning birgalikdagi faoliyati natijasida boradi. Shuning uchun ham ta'lim jarayoni ikki tomonlama xarakterga ega deyiladi

Uzluksiz ta'lim tushunchasi va mohiyati

Uzluksiz ta'lim - o'zaro mantiqiy izchillik asosida bog'langan hamda soddadan murakkabga qarab rivojlanib boruvchi va birbirini taqozo etuvchi bosqichlardan iborat yaxlit ta'lim tizimi. O'zbekiston Respublikasida kadrlar tayyorlash tizimining asosi, ta'lim sohasida davlat siyosatining asosiy tamoyillaridan biri. 1997-yil 29 avgustda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturida alohida tamoyil sifatida qayd etilgan.

Uzluksiz ta'lim — bu maktabgacha ta'limdan boshlab oliy va oliy ta'limdan keyingi bosqichlargacha, shuningdek, qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarini o'z ichiga olgan yagona ta'lim tizimidir. Ushbu tizim shaxsning bilim va ko'nikmalarini doimiy ravishda rivojlantirishga xizmat qiladi.

Uzluksiz ta'limning faoliyat ko'rsatish tamoyillari quyidagilardan iborat:

- ta'limning ustuvorligi — uning rivojlanishining 1darajali ahamiyatga ega ekanligi, bilim, ta'lim va yuksak intellektning nufuzi;
- ta'limning demokratlashuvi — ta'lim va tarbiya uslublarini tanlashda o'quv yurtlari mustaqilligining kengayishi, ta'limni boshqarishning davlatjamiyat tizimiga o'tilishi;
- ta'limning insonparvarlashuvi — inson krbiliyatlarining ochilishi va uning ta'limga bo'lgan turlituman ehtiyojlarining qondirilishi, milliy va umumbashariy qadriyatlar ustuvorligining ta'minlanishi, inson, jamiyat va atrofmuhit o'zaro munosabatlarining uyg'unlashuvi;



- ta'limning ijtimoiylashuvi — ta'lim oluvchilarda estetik boy dunyoqarashni hosil qilish, ularda yuksak ma'naviyat, madaniyat va ijodiy fikrlashni shakllantirish;
- ta'limning milliy yo'naltirilganligi — ta'limning milliy tarix, xalq an'analari va urfodatlari bilan uzviy uyg'unligi, O'zbekiston xalklarining madaniyatini saqlab qolish va boyitish, ta'limni milliy taraqqiyotning o'ta muhim omili sifatida e'tirof etish, boshqa xalklarning tarixi va madaniyatini hurmatlash; ta'lim va tarbiyaning uzviy bog'likligi, bu jarayonning qar tomonlama kamol topgan insonni shakllantirishga yo'naltirilganligi;
- iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularga ta'limning eng yuqori darajasida, izchil ravishda fundamental va maxsus bilim olishlari uchun shartsharoitlar yaratish.

Uzluksiz ta'limning asosiy mohiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- ✓ ta'lim bosqichlarining o'zaro uzviy bog'liqligi;
- ✓ bilimlarni yangilab borish imkoniyati;
- ✓ shaxsning kasbiy va ijtimoiy moslashuvchanligini oshirish;
- ✓ ta'limning hayot bilan uzviy bog'liqligi.

Uzluksiz ta'limdagi zamonaviy tendensiyalar

Uzluksiz ta'limdagi zamonaviy tendensiyalar ta'limning shaxsnavisligini ta'minlash, raqamli texnologiyalarni joriy etish, moslashuvchan va onlayn o'qitish, kasbiy ko'nikmalarga yo'naltirish, hayotiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirish hamda ta'limni global kontekstga integratsiya qilishdan iborat bo'lib, bu tendensiyalar shaxsning o'z-o'zini rivojlantirish va doimiy o'zgaruvchan dunyoga moslashuvini ta'minlaydi.

Hozirgi kunda uzluksiz ta'lim tizimida bir qator muhim tendensiyalar kuzatilmoqda:



Zamonaviy Tendensiyalar:

1. **Shaxsnavislik (Personalizatsiya):** O'quvchilarning o'ziga xos ehtiyojlari, qiziqishlari va qobiliyatlariga moslashtirilgan ta'lim dasturlari.
2. **Raqamli Transformatsiya (Digital Transformation):** Onlayn platformalar, mobil ilovalar va sun'iy intellekt (AI)dan foydalanish orqali ta'limni yanada qulay va samarali qilish. Ta'lim jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining joriy etilishi masofaviy ta'lim, onlayn platformalar va elektron resurslar orqali bilim olish imkonini kengaytirmoqda.
3. **Moslashuvchan (Fleksibel) Ta'lim:** Onlayn, oflayn va aralash (blended) ta'lim modellarining integratsiyasi, vaqt va joydan qat'i nazar o'qish imkoniyati.
4. **Umrbod Ta'lim (Lifelong Learning):** Kariyera davomida yangi ko'nikmalarni o'rganish va malakalarni oshirishga urg'u berish. Kasbiy faoliyat davomida qayta o'qish, malaka oshirish va yangi bilimlarni egallash uzluksiz ta'limning asosiy yo'nalishiga aylanmoqda.
5. **Kompetensiyaga Yo'naltirilgan Yondashuv:** Nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy ko'nikmalar (kritik fikrlash, muammolarni hal qilish, hamkorlik) rivojlantirish. An'anaviy bilim berishdan amaliy kompetensiyalarni shakllantirishga o'tish asosiy tendensiyalardan biridir. Bu yondashuv mehnat bozorining talablariga mos kadrlar tayyorlashga xizmat qiladi.
6. **Yangi Pedagogik Metodlar:** Interaktiv darslar, loyiha asosida ta'lim (PBL), muammoli vaziyatlar (problem-based learning) va "teskari sinf" (flipped classroom) modellari.
7. **Keng Qamrovlilik va Inqilobiy (Inclusivity) Ta'lim:** Har bir o'quvchining ehtiyojini hisobga olgan holda ta'limning barcha uchun ochiq bo'lishi.



Bu tendensiylalar ta'limni an'anaviy modeldan yangi, moslashuvchan va innovatsion tizimga aylantirib, shaxsning doimiy o'zgaruvchan dunyoda muvaffaqiyatli bo'lishiga yordam beradi.

Uzluksiz ta'limning maqsadlari

- Uzluksiz ta'lim tizimining asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:
- shaxsning intellektual, ma'naviy va kasbiy salohiyatini rivojlantirish;
- raqobatbardosh va malakali kadrlar tayyorlash;
- jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga hissa qo'shish;
- ta'lim sifatini doimiy oshirib borish;
- innovatsion fikrlovchi, mustaqil qaror qabul qila oladigan shaxsni shakllantirish.

Uzluksiz ta'lim tizimi oldiga quyidagi vazifalar qo'yiladi:

- ta'lim bosqichlari o'rtasida uzviylikni ta'minlash;
- zamonaviy pedagogik va innovatsion texnologiyalarni joriy etish;
- pedagog kadrlarning malakasini doimiy oshirish;
- ta'lim mazmunini mehnat bozori ehtiyojlariga moslashtirish;
- ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish;
- ta'lim oluvchilarda mustaqil o'rganish ko'nikmalarini rivojlantirish.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, uzluksiz ta'lim zamonaviy jamiyat taraqqiyotining muhim omili hisoblanadi. Ta'lim tizimida kuzatilayotgan yangi tendensiylalar shaxsni har tomonlama rivojlantirish, uning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Uzluksiz ta'limning maqsad va vazifalarini samarali amalga oshirish orqali ta'lim sifatini oshirish, barkamol avlodni tarbiyalash mumkin.

Zamonaviy ilmiy bilimlarni egallagan, mustaqil fikrlash va muammolarni yechish imkoniyatiga ega bo'lgan ma'naviy jihatdan boy shaxslarni shakllantirishdir. Jamiyat rivojlanar ekan, hayotiy talablarning darajasi ham ortib



boradi. Demak, ilmiy bilimlarning hajmi kengayib, ilmiylik darajasi chuqurlashib borar ekan, mantiqiy fikrlash va muammolarni tezda hal etishga bo'lgan talab yanada kuchayib boradi. Bu fikrdan kelib chiqqan holda ta'lim tizimi bugungi kun talabinigina hisobga olgan holda emas, balki kelajak talablarini aniqlagan va hisobga olgan holda ish olib borishi kerak degan xulosaga kelamiz. Chunki, bugungi kun talablari kelajakda jamiyatning asosiy o'zagiga aylanadi. Demak, ta'lim tizimi talabalarni bugungi kundagi hayotga emas, balki kelajakdagi hayotga tayyorlashi lozim. Bu ham ta'limning o'ziga xos xususiyatlaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “Uzluksiz ta'limdagi tendensiyalar va zamonaviy yondashuvlar” Berdiyeva Halima Bo'ranovna. O'quv qo'llanma Termiz-2025
2. Uzluksiz ta'lim tizimida o'qitishning zamonaviy tashkiliy shakllari S. X. SULLIYEVA, F. A. TOJIYEVA, G. I. G'ANIYEVA. Termiz-2023.
3. <https://uz.wikipedia.org/>
4. <https://turan-edu.uz/>
5. <https://cyberleninka.ru/>